

IJODIY AN'ANA VA POETIK TALQIN

*Ro'ziqulova Dilbar Muzaffar qizi Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy
Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti xodimi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek she'riyatida ijodiy an'ana va poetik talqin masalalari Sirojiddin Sayyid hamda Faxriyor ijodi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Alisher Navoiy ijodining zamonaviy she'riyatdagi davomiyligi, ayniqsa "hay tulugum, hay tulum" obrazining poetik-folkloriy ildizlari yoritilgan. Muallif xalq og'zaki ijodi, qadim turkiy musiqiy-estetik qarashlar hamda mumtoz adabiy an'analarning zamonaviy poetik tafakkurdagi aksini qiyosiy tahlil asosida ochib beradi. Shuningdek, surud, ayolg'u kabi qadimiy tushunchalarning poetik funksiyasi va ularning milliy o'zlikni anglashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida zamonaviy she'riyatda milliy poetik xotiraning qayta jonlanishi hamda an'anaviy motivlarning yangi badiiy talqinda davom etayotgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: ijodiy an'ana, poetik talqin, Alisher Navoiy, Sirojiddin Sayyid, Faxriyor, surud, ayolg'u, xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyat, zamonaviy she'riyat, poetik xotira, folklor motivlari, turkiy an'ana, badiiy tafakkur.

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы творческой традиции и поэтической интерпретации в узбекской поэзии на примерах Сироджиддина Сайида и Фахриёра. Исследование подчеркивает преемственность творчества Алишера Навои в современной поэзии, особенно поэтические и фольклорные корни образа «хай тулугум, хай тулум». На основе сравнительного анализа автор выявляет отражение народного устного искусства, древних тюркских музыкально-эстетических взглядов и классических литературных традиций в современной поэтической мысли. Также освещается поэтическая функция древних понятий, таких как суруд и айлгу, и их роль в понимании национальной идентичности. Исследование обосновывает возрождение национальной поэтической памяти в современной поэзии и сохранение традиционных мотивов в новых художественных интерпретациях.

Ключевые слова: творческая традиция, поэтическая интерпретация, Алишер Навой, Сироджиддин Сайид, Фахриёр, гимн, айлгу, народное устное искусство, национальная ценность, современная поэзия, поэтическая память, фольклорные мотивы, тюркская традиция, художественная мысль.

Abstract

This article analyzes creative tradition and poetic interpretation in Uzbek poetry using the examples of Sirodjiddin Sayid and Fakhriyor. The study emphasizes the continuity of Alisher Navoi's work in modern poetry, particularly the poetic and folkloric roots of the image "hai tulugum, hai tulum." Using a comparative analysis, the author identifies the reflection of folk oral art, ancient Turkic musical and aesthetic views, and classical literary traditions in modern poetic thought. The poetic function of ancient concepts such as surud and aylgu and their role in understanding national identity are also highlighted. The study substantiates the revival of national poetic memory in modern poetry and the preservation of traditional motifs in new artistic interpretations.

Key words: creative tradition, poetic interpretation, Alisher Navoi, Sirojiddin Sayid, Fakhriyor, anthem, aylgu, folk oral art, national value, modern poetry, poetic memory, folklore motifs, Turkic tradition, artistic thought.

O'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilish qiyin, ta'bir joiz bo'lsa uning jon tomirlaridan biri, ozuqa manbai. Navoiy targ'ib qilgan xalqni ma'rifatga chorlovchi, insonparvar g'oyalar zamonamiz uchun ham dolzarb bo'lib, bir qator ijodkorlar tomonidan davom ettirilmoqda. Ijodiy an'analarni izchillik bilan 21-asr she'riyatida davom ettirgan ijodkorlardan biri S.Sayyiddir. Shoir ijodida mumtoz an'ana A.Navoiy, Bobur nazmiga ergashib yozilgan asarlarida namoyon bo'ladi. So'z san'atkori adabiyotni, uning go'zalligini his etarkan, buyuk iste'dod sohiblarining ijodiy an'alarini namoyon etmoqda. Xususan, "Vaqt haykali" dostonlar to'plamida Bobur hasratlarini qayta "jonlantirgan" bo'lsa, o'zining 4 tomlik "Asarlar" [4, 41-b] idan o'rin olgan "Xamsa hayratlari" ma'rifiy dostoni orqali "Hayrat ul-abror" dostonidan olgan "hayratlar"ini – "satrma-satr, baytma-bayt – ustma-ust hayrat, varaqma-varaq, dostonma-doston, kitobma-kitob – to'la hayrat" [1, 13-b] deya ifodalaydi. Adabiyotshunosligimizda aynan ushbu mavzuga bag'ishlangan bir necha tadqiqotlar mavjudligi [2, 5-b] sabab ushbu hayratlardan o'rin olgan ayrimlari, nafaqat mumtoz, balki xalq og'zaki ijodi, qadim turkiy qadriyatni o'zida jam etuvchi janr surudga qaratmoqchimiz. Garchand, Navoiy "Hayrat ul abror"da suruddan aynan foydalanmagan bo'lsa-da, uni quyidagicha talqin qiladi:

Turk surudi bila solib qo'lum,

Qilsam ado hay tulugum, hay tulum.

Ul qila olmasa hamovozliq,

Qilsa ayolg'u bila damsozliq. [1, 61-b]

Izoh: "Turkiy ohangga qo'limni o'ynatib, "hay tulugim, hay tulum!" deb kuylasam; biron menga hamovozlik qilolmas ekan, loaqal qo'shiq aytib, quvvatlab tursa". Shoir buning bilan o'z ona tilida asarlar yaratishga kuchli ishtiyoqi bo'lganligini ta'kidlagan (Hamid Sulaymon izohi).

- Ayolg'ʻu (arab.) o'lan, ashula, kuy, qo'shiq;
- Surud (fors.) qo'shiq, ashula

Navoiy ushbu parchada turk surudini yodga olar ekan “hay tulugum, hay tulum” birikmasini bejiz kiritmaydi. Tulum – 1) Terisiga poxol tiqilgan buzoq (bolasi o'lgan sigirni iydirdirishda foydalaniladi); 2) Ichiga poxol va b. narsa tiqib qotirilgan hayvon, qush va sh.k; 3) Mesh, sanoch. Izohlarda ko'rinib turganidek ushbu so'z izohlarda musiqa san'atiga yod tushuncha ifodalamoqda, ammo qadimiy turkiy xalqlar ushbu atamani hayvon terisidan tayyorlangan qo'lbola musiqa asbobiga nisbatan qo'llashgan hamda bugungi kunda shimoli-sharqiy Anadolu aholisi orasida mashhur bo'lib, musiqa va raqs komponentini bildiradi. Ushbu milliy atamani qayta jonlantirgan S.Sayyid uni ayni ashulaga monand ohangda, yengil va xalqchil o'ynoqi qofiyada qo'llaydi:

Keldi bahor-u yana sen shay, gulum,
 Bizga tutar lola yana may, gulum,
 Bo'ldi yana jon-u dilim nay, gulum,
 Ketma axir, ketma axir, hay gulum,
 Ketma axir, hay tulugum, hay tulum.

Shoirning lirik qahramoni har qachongidan ham ijodga tashna, jon-u dili nay kabi nola qilishga hozir va bu dard undan sira ketmasligini istaydiki, bu esa lirik kechinmalarda te'ranlashadi.

Qirga qo'nar bul bulutim, bul bulut,
 Bul bulutim soyasida gul-gul o't.
 Qumri bila sa'va kel-u, bulbul, o't,
 Bo'lsa kerak dilda hali ul-bulum,
 Sizga beray, hay tulugum, hay tulum.

O'zining jilvakorligi, ohangdorligi, novatorligi, originalligi, va nihoyat, yurakdan tiniq buloq suvidek otilib chiqqan, o'qigan sayin bizni ham o'zi bilan ajib-ajoyib bag'riga oqizib ketadigan misralarda shoir kamtarona o'z qalbiga murojaat qiladi:

Tilga g'arib, so'zga hali men avom,
 Jon oladir, jon beradir bir kalom.
 O'rgatadir toki Navoiy bobom,
 Kuchga to'lib erka dilim, duldulim,
 Jilvalanur, hay tulugum, hay tulum.
 Menga seni aylasa taqdir umr,
 Sen biladir sehr umr, sir umr.
 “Hay tulugum” aytib o'tay bir umr,
 Menga axir qildi vafo qay gulum?
 Hay tulugum, hay tulugum, hay tulum.

Adib ijodkor qalbiga murojaat qilar ekan, uning Navoiyga izdosh ekanligi hamda o'zining taqdiri aynan ijod bilan ekanligini ta'kidlaydi. Badiiy so'zga, uning qudrati-yu ijod mashaqqati va go'zalliklariga bag'ishlangan she'r "Hayrat ul abror"ning o'n beshinchi "so'z mazmuni hamda uni qo'lga kiritguvchilar" haqidagi bob ta'sirida yaratilganligi oydinlashadi. S.Sayyid ta'kidlagan "hay tulugum" zamondosh shoirlar ijodida ham uchraydi, xususan, modern shoir Faxriyor ham an'anaviy, ham zamonaviy ruhda yozilgan "Ayolg'u" dostonida quyidagicha namoyon bo'ladi:

Oylar cho'kar falakdan jimir-jimir jimirlab
 Tog'lar cho'kar falakka jimir-jimir jimirlab
 Toshlar qilar kalaka qiqir-qiqir qiqirlab
 mening esa bo'g'zimda uluv bordir bir ulim
 Hey tulugim, hey Tulum.
 Hey tulugim, hey tulum

An'anaviy, xalqona ruh – ohang bilan yo'g'rilgan satrlar bag'rida qad rostlab turgan lirik qahramon shoirning nigohi, tabiat manzaralarini ko'rish, kuzatish, idrok etish tarzi tamomila yangicha, o'ziga xos [3, 153-b] bo'lib satrlar qatidagi musiqiylik xalq baxshilari tomonidan ijro etilguvchi dostonlar ohangini yodga soladi. Tabiat bilan uyg'unlik asrlar osha xalqimizning qon-qoniga singib ketgan qadriyatlarda namoyon bo'lib kelgan, qo'shiq, alla, lapar, dostonlarda aks etgan. Quyidagi parcha ham bugungi axborot asrida ushbu qadriyatlarning shoirlarimiz tomonidan qayta yuzaga chiqarilayotganining namunasi:

ko'ktangrining bog'ida gullar unar nopormon
 endi men bu gullarni izlab qaydan toparman
 singan umidlarimning darvozasin yoparman
 gulni izlab boradir
 uluvlarim ul ulum
 Hey tulugim hey tulum
 Hey tulugim hey tulum

Adib asliyatini qidirar ekan, uning olisda qolganini tan oladi, tan olish asnosida go'yo dardli qo'shiq kuylaydi, "Hey tulugim, hey tulum" naqorati esa misralar ta'sirchanligini oshirish bilan bir qatorda qadim turkiy ohang bag'riga olib ketadi.

Ko'rinadiki, Navoiyni anglash, ma'naviyatga singdirish xalqimizning o'zini, o'zligini anglashga, milliy qadriyatlar, ularning tag-za'mirida yotgan milliylikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek zamonaviy she'riyatida mumtoz adabiy meros va xalqona poetik an'analar yangi estetik tafakkur asosida qayta talqin qilinmoqda. Alisher Navoiy ijodidagi ma'rifiy, musiqiy va milliy ruh Sirojiddin Sayyid hamda Faxriyor she'riyatida yangicha poetik shakllarda davom ettirilgan. Ayniqsa, "hay tulugum, hay tulum" singari qadimiy poetik birliklarning zamonaviy she'riyatga olib kirilishi milliy xotira va turkiy estetik tafakkurning uzviyligini

namoyon etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijodiy an'ana shunchaki takror emas, balki har bir davrning badiiy-estetik ehtiyojlariga mos holda yangilanadigan poetik hodisadir. Shu jihatdan, zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz merosni saqlash bilan bir qatorda, uni yangi mazmun va yangi poetik shakllar orqali boyitishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston SSJ «Fan» nashriyoti, 1991. – 168 b
- 2) Fayzullayeva R. “Xamsa” hayratlari” – so'nmas e'tiqod ifodasi, Til va adabiyot ta'limi jurnali, 2023-yil 11-son.
- 3) Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Akademiya nashr, 2020. – 153 b.
- 4) Sayyid. S. Asarlar. 4-jild. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019.
- 5) Zayniddinova S. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz adabiyot an'analari. <https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/2413/2163>;